

KREATIV IQTISODIYOTNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

*M.X. Abdullayeva - TDIU katta o'qituvchisi,
M.B. Eshqobilova - TDIU 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan "Kreativ iqtisodiyot" tushunchasi mohiyati va uni jahon tajribasi asosida O'zbekiston umumiy iqtisodiyotida rivojlantirish bosqichlari o'rganiladi. Kreativ iqtisodiyot bu - kreativ, ma'daniy va innovatsion mahsulot va xizmatlarni jismoniy shaxs yoki korxonalar tomonidan yaratish, saqlash, tarqatish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlarining majmui hisoblanadi. U dunyo miqyosida iqtisodiyotning ajralmas bir bo'lagi sifatida qaraladi. O'zbekistonda ushbu tizimning joriy etilishi, davlatning o'z oldiga qo'ygan YaIM darajasini oshirish va xalqlning intellektual salohiyatini yanada mukamallashtirish maqsadlari bilan bog'liq. Shuningdek, maqolada tizimni dunyo miqyosida bir necha rivojlangan davlatlar modelida ko'rib chiqish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, intellektual, texnologiya, innovatsion, tendentsiya, brend, global, industriya

Kirish.

Yillar davomida inson o'zining intellektual qobiliyatlari mahsulini turli xil jabhalarda nomoyon qildi. Hozirgi kungacha aqlbovar qilmas texnologiyalar, kashfiyotlar, izlanishlar ortidan topilgan tarixiy manbalar, qo'lyozmalar, global muammolarga topilayotgan yechimlar, insonning ishlab chiqarish va boyluk ortirishga bo'lgan qiziqishlari, hamma-hammasi butun duyo bo'ylab iqtisodiyot sohasini rivojlanishiga sabab bo'ldi. Iqtisodiyotni rivojlanishiga qarab, davlatlar o'rtasida o'zaro "Development Rate" (rivojlanganlik darajasi) ni shakllantirdi, ya'ni mustaqil davlat maqomini olgan barcha mamlakatlar o'zining YaIM darajasiga qarab 3 xil bosqichda: rivojlangan, rivojlanayotgan, rivojlanishga o'tayotgan davlatlar turkumiga bo'lindi. Shu boisdan deyarli har bir davlat o'zining oldiga aholini ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash bilan birgalikda iqtisodiy sohalarda yangi innovatsion g'oya va texnologiyalarni yaratishni asosiy maqsad sifatida qo'ygan.

Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor, avval uni asosiy yo'nalishlarga bo'lib o'rganadi. Ularga hozirda quloqqa ko'p chalinadigan raqamli, yashil, global, xufyona va milliy iqtisodiyot kabilar kiradi hamda bugungi mavzuga doir bo'lgan kreativ iqtisodiyot ham shular jumlasidandir. Dastlab bu tendensiya yaqingi 20 yil ichida paydo bo'ldi, o'rganildi va ko'p rivojlangan davlatlar tomonidan iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi sifatida rivojlantirish vazifasiga kiritildi. Shuningdek,

mamlakatimizda ham 2024-yil 30-sentabr kuni Respublika Qonunchilik palatasi tomonidan “Kreativ iqtisodiyot” to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

Asosiy qism

Dastavval, kreativlik deganda shaxsning ma’lum standartlar, normalar, shablonlardan chetga chiqishi va barcha sohalarida noodatiy yondashuv xususiyati tushuniladi. Kreativlik lotincha, ”Creatio”-yaratish, bunyod etish degan ma’nolarni anglatadi. Bu atama 1950-yillarda dastlab psixologiya faniga kirib keldi. Keyinchalik 2000-yilda birinchi marta Business Week jurnalidagi maqolada iqtisodiyotning yo’nalishi sifatida tilga olindi. Unda muallif XXI asrda kompaniyalarning taraqqiyotida kreativ g‘oyalarning ahamiyati ortib, intellektual resurslar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanishi hamda yangi iqtisodiyot sharoitlariga moslashish imkoniyatlari haqida fikr yuritgan. 2001 yilda Jon Xoukins kreativ iqtisod kontseptsiyasini taklif qildi va ushbu konsepsiyada u yer, mehnat va kapital kabi an’anaviy resurslarga emas, balki o‘ziga xoslik va ijodkorlikka bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy tizimlar. umumiy olganda, iqtisodiyotning bunyodkorligini tavsifladi.

Hozirgi kunga kelib kreativ itisodiyot qator mustaqil davlatlarning yangi iqtisodiy rivojlanish siyosati va strategiyalari markazida turadi. Yevropa davlatlari misolida kreativ tarmoqlar faol o‘sishi, ayniqsa London, Berlin va Barselona shaharlarida kuzatilmoqda. Jumladan, Londonda 386 mingdan ortiq kreativ tadbirkorlar mavjud, ular 19 milliard funt sterlingga yaqin daromad keltiradi. Bu Buyuk Britaniya poytaxti iqtisodiyotining 16 foizini tashkil qiladi, degani. “GLA Economics” ma’lumotiga ko‘ra, reklama, arxitektura, axborot texnologiyalari va nashriyot kabi ijodiy sohalar Londondagi umumiy ish o‘rinlarining 16,3 foizini qamrab oladi. Berlin so‘nggi paytlarda turli xalqaro tadbirlar o‘tkaziladigan asosiy markazlardan biriga aylandi. Misol uchun, Berlinale, German film awards, Media Convention, Gamesweek, Deutscher Computerspielpreis shular jumlasidan. Mazkur shaharda loyiha-maydonlari (project spaces) keng tarqalgan, ushbu hududlarda maxsus jihozlangan binolar bo‘lib, ularda ma’lum bir loyihani amalga oshirish, biznes modellarini va turli g‘oyalarni tajribadan o‘tkazish asosida sinab ko‘rish mumkin.¹ Umumiy qilib aytganda, Berlinda 170 ming xodimga ega 24 mingdan ortiq kreativ korxonalar faoliyat yuritmoqda. Sharq tarafdan, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Tailand Malayziya va Indoneziya kabi davlatlarning iqtisodiyotni yaxshilash modulini olib qaralsa, davlat budjetiga keladigan foydaning eng ko‘p ulushi kreativ iqtisodiyotning san‘at, ishlab chiqarish tarmoqlaridan kelib tushadi. Bunga misol qilib hozirgi kunda butun dunyoga yoyilayotgan Janubiy Koreya musiqa san‘atining KPOP yo‘nalishini kreativ industriyaning davlatga keltiradigan foyda namunasi sifatida olsak, bu yo‘nalish 2022-yil hisobida davlatga 11 trillion von (Koreya milliy valyutasi)ga

¹ <https://yuz.uz/uz/news/kreativ-iqtisodiyot-mohiyati-va-uni-rivojlantirishning-jahon-tajribasi>

yaqin rekord darajada daromad keltirdi. Uning ekport qiymati esa ushbu yilda taxminan 927,6 million dollarni tashkil qildi.

Butun dunyoda muhim ahamiyat kasb etgan iqtisodiyotning bu sektori O'zbekiston davlatida ham uni joriy etish va tadbiriq qilish katta vazifa sifatida oldinga qo'yilgan edi. O'tgan yili O'zbekiston Respublikasi Prizedenti Shavkat Miromonovich 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida iqtisodiyotimiz barqarorligi, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi yana bir yangi yo'nalish - kreativ iqtisodiyotga to'xtalib, "Kelgusi yili Toshkentda kreativ iqtisodiyotga bag'ishlangan xalqaro konferensiyani, Nukusda esa "Orol madaniyati" xalqaro ilmiy anjumanini o'tkazamiz. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha alohida qonun qabul qilish ham kun tartibidagi dolzarb masaladir", dedi.² Joriy yilning 30-sentabr kuni shu masalaga muvofiq "KREATIV IQTISODIYOT" to'g'risida qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda kreativ iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif berilgan, kreativ iqtisodiyot — ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog'3;

Qonunning asosiy maqsadi kreativ iqtisodiyot uchun zarur infratuzilma yaratish bo'lib, unda quyidagi 15 ta yo'nalish muhim soha sifatida belgilangan:

1. adabiy ijod;
2. arxitektura, loyihalash, urbanistika;
3. audiovizual san'at;
4. moda va dizayn san'ati;
5. ijrochilik san'ati;
6. muzeylar, badiiy galereyalar (ko'rgazma), axborot-kutubxona faoliyati;
7. nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyat;
8. ommaviy axborot vositalari sohasidagi ijodiy faoliyat va internet orqali uzatish;
9. konsert-tomosha faoliyati va ommaviy-madaniy tadbirlar tashkil etish;
10. prodyuserlik faoliyati;
11. raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyat;
12. reklama sohasidagi ijodiy faoliyat;
13. san'at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir hamda restavratsiya faoliyati;
14. tasviriy san'at;
15. xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik.

² <https://parliament.gov.uz/news/kreativ-iqtisodiyot-mamlakat-taraqqiyoti-omili#!>

³ lex.uz (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 03/24/970/0775-son)

Umuman olganda, mamlakatimizda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning dastlabki bosqichlari allaqachon boshlangan edi. Masalan, aksariyat shaharlarda yoshlarning iqtidorini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi texnoparklar tashkil etildi. Natijada, yurtda startaplar tobora keng joriy etilib, yoshlar orasida ommalashdi. Buni yanada takomillashtirish uchun kreativ iqtisodiyot tushunchasini ommaga tadbiq qilish va uning mohiyatini sindirish, uni amalga oshirishda investitsiyalar jalb qilish, rivojlantirish, sohaga yetarli kadrlarni tayyorlash va jalb qilish, jahon bozoriga raqobatdosh chidamli kompaniyalarni yaratish va tovarlar ishlab chiqarish (brendlar, moda, dizayn) maqsadida ushbu qonun kuchga kirdi. Qonunda yana Ijodiy iqtisodiyot sohasida amalga oshiriladigan siyosatning asosiy yo'nalishlari va rivojlantirish strategiyalari aniq qilib belgilandi hamda uni amalga oshirishda turli xil davlat organlariga vakolatlar berilishi ta'minlandi.

Xulosa

Kreativ iqtisodiyot bizga nimalar berishini va uning keng qo'llanilishi iqtisodiyotimizga qanchalik foyda keltirishini o'rganadigan bo'lsak, bu maydon bizga mamlakatimizda turizm sohasini rivojlanishi, milliy mahsulotlarimiz jahon bozoriga chiqishi, import kamayib export ulushi oshishi, madaniyatimiz va tariximizni butun dunyoga tanitish, qisqa qilib aytganda rivojlangan davlatlar qatoriga kirish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab kreativ industriya maydoni ko'pi 16 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan asosan yoshlar faoliyati tashkil qiladi. Internet kommunikatsiya rivojlangan bir davrda shu pokoleniyadagi yoshlar o'zini o'zi band qilish orqali jamiyatga foyda keltirmoqda. Bu esa ishsizlik darajasini pasaytiradi, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, yangi sohalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy industriya subyektlari yetishtirish, ularning faoliyatiga investitsiyalar jalb qilish, huquqlarini himoyalash va yangi texnologiyalar bilan oziqlanirish davlat siyosatining asosiy prinsiplaridandir.